



KASB-HUNAR MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING LOYIHALASH KOMPTENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING O‘RNI

Hamdamov F.R.

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: loyiha, kompetentlik, o‘quvchi, kompyuter, grafika, maktab.

Ключевые слова: проект, компетенция, ученик, компьютер, графика, школа.

Key words: project, competence, student, computer, graphics, school.

Bugungi kunda barcha soha va tarmoqlarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi korxonalar ishga tushirilib, ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilmoqda. Bularning barchasi malakali mutaxassislariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Chunki har bir sohaning rivoji, loyihalarning ijrosi yetuk kadrlarga bog‘liq.

Shu bois keyingi yillarda ta‘lim tizimi modernizatsiya qilinib, o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari joriy etilmoqda. Hududlarda yangi, shu jumladan, xorijiy ta‘lim muassasalari tashkil etilib, talab yuqori bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashga sharoit yaratilmoqda.

Kollejlar negizida professional ta‘lim muassasalarining yangi tarmog‘ini shakllantirish vazifasi qo‘yildi. Ushbu muassasalarda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlanadi. O‘qitish muddatlari zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarning murakkabligiga qarab turlicha bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5812-son Farmonini ijro etish maqsadida qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim to‘g‘risidagi nizom;



- Boshlang‘ich professional ta‘lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi;
- O‘rta professional ta‘lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi;
- O‘rta maxsus professional ta‘lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi.

Tizimida kollejlari va texnikumlar bo‘lgan vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalariga tasdiqlangan namunaviy ustav asosida ularning ustavlarini ishlab chiqish hamda ularning faoliyatini ularga muvofiq yo‘lga qo‘yish topshirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-apreldagi 232-son qaroriga muvofiq kasb-hunar maktablarida boshlang‘ich professional ta‘lim dasturlari asosida ta‘lim oladigan o‘quvchilarga 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab BHMning 1 baravari miqdorida oylik stipendiya uchun mablag‘lar ajratilishi hamda uch mahal ovqat bilan ta‘minlanishi ma‘lumot uchun qabul qilindi.

Quyidagilar professional ta‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy AKTni tatbiq qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash;
- xorijiy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o‘quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg‘unlashgan tabaqalashtirilgan ta‘lim dasturlarini hamda o‘qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;
- “hayot davomida ta‘lim olish” prinsipi asosida ta‘lim olishga o‘tish uchun sharoitlar yaratish va boshqalar [1-2].

Kasb-hunar maktablari fan dasturi ya‘ni boshlang‘ich professional ta‘limning fan dasturida umumta‘lim fanlar kesimida qaraydigan bo‘lsak, Birgina Informatika va axborot texnologiyalari fani ham kasbga yo‘naltirib o‘qitilishi bugungi kunda dolzarb masaladir. O‘quvchida bugungi zamon innovatsiyasini yaratishi tuyg‘usi, dastlabgi kichik loyihalar ustida farazlari vujudga kelishida Informatika va axborot texnologiyalari fani ham nazariy, ham amaliy jihatdan yordam beradi. Informatika va axborot texnologiyalarining axborotlashgan jamiyatdagi, xususan, o‘z kasbiy sohasidagi o‘rni, roli va vazifalarini bilishi



va ularhaqida tushunchalarga ega bo'lishi; shaxsiy kompyuterlar tasnifi va tarkibini, tizimli blok vauning tuzilmasini, kompyuterda ma'lumotlarni tashkil etishva saqlashni bilishlari; Shaxsiy kompyuter dasturiy ta'minoti va uning turlarini bilishi va ular bilan ishlay olishi; operatsion tizim va uning qobig'i ostida ishlovchi dasturlarnibilishi va ular bilan ishlay olishi, zamonaviy operatsion sistemalar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi, ofis dasturlar paketi va uning tarkibini, dasturlarning imkoniyatlarini bilishi va ulardan foydalana olish malakalariga ega bo'lishi, grafik obyektlar va ularni kompyuterda tasvirlash usullarini, amaliy dasturlar va ularning turli kasbiy sohalarda qo'llalanilishi, nashriyot tizimlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi; zamonaviy dasturlash tillari va ularning tasnifi, dasturlash tilining asosiy tushunchalari va operatorlarini, obyektga mo'ljallangan dasturlash haqida bilimga ega bo'lishi, zamonaviy dasturlash tillari va uning ishchi muhiti bilan ishlay olish kabi ko'nikmalar shakillanadi [4-5].

O'quvchilarni kasbiy-texnologik tayyorlash jarayonining tuzilishi va mazmunli, faoliyatli-ijodiy loyihaviy faoliyatida, uning asosini muhandislik texnologiyasi tashkil etdi. O'quvchilarni kasbiy-texnologik, tashkiliy-boshqaruv, analitik-modellashtirish loyihaviy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega barcha tabiiy-ilmiy, matematik va muhandislik tayyorgarlik mazmunini tanlash va tuzib chiqish, muxandis loyihalash faoliyati haqida, uning vazifalari va hal etadigan ta'lim masalalari, munosabatlari usullari borasida to'la tasavvurga ega bo'lish imkonini beruvchi amaliy faoliyatli yondashuv hisoblandi [3].

Bundan xulosa shuki kasbiy ta'limda loyihalashtirish o'quvchilarning loyihalash kompetentligi mazmunining rivojlantirish modelini takomillashtirishga olib keladi. O'quvchilar kompyuter grafikasi grafik dasturlar vositasida loyihalash kompetentligini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlari, ijtimoiy-gumanitar, kasbiy-psixologik, tashkiliy-boshqaruv, mazmunli, sotsiotexnik loyihalarni kompyuter grafikasi vositasida ishlab chiqish jarayonlarini tashkil etishda metodik yondashuv, informatsion va loyihaviy faolitni yaxlit didaktik tizimida integratsiyalashiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-apreldagi 232-son qarori
3. Madaminov J.Z. Muhandislarni loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishda "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanini o'rni // Jamiyat va innovatsiyalar– Toshkent, 2021.– Tom 2 № 4/S – B.633-638



4. N.Taylaqov, A.Ahmedov, M.Pardateva, A.Abdug'aniyev. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun Informatika va axborot texnologiyalari fanidan darslik Toshkent MCHJ "EXTREMUM-PRESS", 2018 y.

5. D.F.Mironov "Kompyuternaya grafika v dizayne" Peterburg, 2008

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kasb-hunar maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fani orqali o'quvchilarda loyihalash kompetentligini rivojlantirish haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о развитии дизайнерской компетентности у студентов посредством информатики и информационных технологий в профессиональных учебных заведениях.

SUMMARY

This article talks about the development of design competence in students through computer science and information technology in vocational schools.